



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM OLISH HUQUQINI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY KAFOLATLARI

Muxammadali OBIDXONOV

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy

huquqshunoslik fakulteti tyutori

E-mail: obidxonovmuhammadali@gmail.com

Ta'lim olish huquqining buzilishi kamdan-kam hollarda ochiq inkor shaklida namoyon bo'ladi. Ko'pincha huquqning nomi saqlanib qoladi, biroq uning real mazmuni asta-sekin torayadi: ta'lim muassasasi hududiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, undagi o'rinlar soni ehtiyojdan ortda qoladi; qabul rasman ochiq bo'lsa-da, to'lov-kontrakt miqdori oilaning to'lov qobiliyatidan oshib ketadi; ta'lim jarayoni davom etsa-da, uning sifati davlat ta'lim standartlarining minimal talablariga javob bermaydi; huquq qonunda e'lon qilingan bo'lsa-da, alohida ehtiyojli bola uchun moslashtirilgan sharoit yaratilmaydi. Shu sababli konstitutsiyaviy tahlil faqat "ta'lim olish huquqi e'lon qilinganmi" degan savolga emas, balki ancha murakkab savolga javob berishi lozim: formal jihatdan mavjud huquq har bir inson uchun real, sifatli va moddiy jihatdan yetib boriladigan imkoniyatga aylanganmi? Formal huquq bilan uning real mazmuni o'rtasidagi ana shu tafovut ta'lim olish huquqi kafolatlari muammosining o'zagini tashkil etadi.

Bunda ta'lim olish huquqi va uning kafolati tushunchalarini farqlash zarur. Ta'lim olish huquqi Konstitutsiya bilan himoya qilinadigan da'vo bo'lib, shaxsning bilim olish imkoniyatiga bo'lgan asosiy talabini ifodalaydi. Kafolat esa ushbu huquqni amalga oshirishning aniq mexanizmi - bepul umumiy o'rta ta'lim, davlat granti, qabul kvotasi, davlat ta'lim standarti, litsenziyalash talabi yoki ta'lim krediti hisoblanadi. Binobarin, alohida mexanizmning



o'zgartirilishi har doim ham huquqning o'zini inkor etmaydi: davlat qabul kvotalarini qayta taqsimlashi, moliyalashtirish shaklini o'zgartirishi, yangi standartlar joriy etishi mumkin. Biroq bunday o'zgartirish faqat yangi model himoya darajasini haqiqatan saqlab qolgan yoki oshirgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi; kafolatning nomi saqlangani holda uning real qiymatining pasaytirilishi esa konstitutsiyaviy jihatdan asoslanishi lozim bo'lgan regressiya hisoblanadi. Ta'lim olish huquqi shunchaki deklarativ norma emas, balki davlat zimmasiga aniq yuridik majburiyatlar yuklovchi bevosita amal qiluvchi konstitutsiyaviy qoidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahriri bunday yondashuv uchun mustahkam normativ asos yaratadi. Konstitutsiyaning 50-moddasi har kimning ta'lim olish huquqini e'lon qilish bilan cheklanmaydi: u davlat zimmasiga uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlash majburiyatini yuklaydi, bepul umumiy o'rta ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi, umumiy o'rta ta'limning majburiyligini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'limni davlat nazoratida deb e'lon qiladi [1]. 51-moddaga muvofiq, har kim davlat hisobidan tanlov asosida oliy ma'lumot olish huquqiga ega bo'lib, oliy ta'lim tashkilotlariga o'zini o'zi boshqarish, tadqiqot va o'qitish erkinliklari kafolatlanadi. 52-modda esa o'qituvchi mehnatini jamiyat va davlatni rivojlantirishning asosi sifatida e'tirof etib, davlatning pedagoglar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi hamda kasbiy o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyatini mustahkamlaydi. Ushbu maxsus normalar Konstitutsiyaning umumiy qoidalari - O'zbekistonni ijtimoiy davlat deb e'lon qilgan 1-moddasi, davlat faoliyatini qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillari bilan bog'lagan 14-moddasi, inson huquqlari bevosita amal qilishini belgilagan normalari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarni



alohida himoya qilish talablari bilan uzviy bog'liqlikda talqin etilishi lozim. Ulardan davlatning to'rt turdagi majburiyati kelib chiqadi: hurmat qilish (mavjud imkoniyatga asossiz aralashmaslik), himoya qilish (uchinchi shaxslar, jumladan, nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan huquq buzilishining oldini olish), ta'minlash (tizim yaratish va moliyalashtirish) hamda rivojlantirish (sifat va qamrovni izchil oshirish).

Xalqaro standartlar ushbu konstitutsiyaviy majburiyatlarning mazmunini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13-moddasi ta'lim olish huquqini eng batafsil tartibga solgan xalqaro norma bo'lib, boshlang'ich ta'limning majburiy va bepulligini, o'rta hamda oliy ta'limning bosqichma-bosqich bepul joriy etib borilishi orqali hamma uchun ochiqqligini talab qiladi. YUNESKOning 1960-yilgi Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi ta'limdagi har qanday kamsitishni taqiqlaydi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 28–29-moddalari esa ta'limni bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltiradi. BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasi 13-son Umumiy sharhida ta'lim olish huquqining normativ mazmunini to'rt elementli sxema - “4A” orqali ochib bergan: mavjudlik - yetarli miqdordagi ta'lim muassasalari, malakali o'qituvchilar va infratuzilmaning mavjudligi; foydalanish imkoniyati - kamsitmaslik, jismoniy yetib borish imkoniyati va iqtisodiy jihatdan ko'tara olish qobiliyati; maqbullik (acceptability) - ta'lim shakli va mazmunining sifat standartlariga hamda madaniy muhitga muvofiqligi; moslashuvchanli - tizimning o'zgaruvchan ijtimoiy ehtiyojlarga va o'quvchilarning turlicha sharoitlariga moslasha olishi. Qo'mitaning 3-son Umumiy sharhiga ko'ra, resurslar cheklanganligi davlatni minimal asosiy majburiyatlardan ozod etmaydi, ataylab regressiv choralar esa eng sinchkov tekshiruvni va to'liq asoslashni talab qiladi. Ta'lim huquqi bo'yicha BMT birinchi maxsus



ma'ruzachisi K.Tomashevski asarlarida ushbu sxema davlat majburiyatlarini amaliy baholash vositasi sifatida rivojlantirilgan .

“4A” sxemasini O‘zbekiston konstitutsiyaviy tizimiga tatbiq etish uning milliy normalar bilan yuqori darajada uyg‘unligini ko‘rsatadi. Mavjudlik elementi 50-moddadagi uzluksiz ta‘lim tizimini ta‘minlash majburiyati va 52-moddadagi pedagoglar farovonligi kafolati orqali; foydalanish imkoniyati - bepul umumiy o‘rta ta‘lim, majburiylik va 51-moddadagi tanlov asosidagi davlat grantlari orqali; maqbullik - maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘limning davlat nazoratida ekanligi hamda davlat ta‘lim standartlari orqali; moslashuvchanlik - “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan masofaviy, dual va inklyuziv ta‘lim shakllari orqali konstitutsiyaviy-qonunchilik ifodasini topgan. Ayni paytda ushbu muvofiqlik normativ darajada bo‘lib, har bir element bo‘yicha amaliy holatni o‘lchaydigan huquqiy vositalar hali to‘liq shakllanmagan.

Xorijiy konstitutsiyaviy nazorat organlari va xalqaro sudlar amaliyoti ta‘lim olish huquqini sud orqali himoya qilish mumkin bo‘lgan real huquq sifatida talqin etish yo‘lidan bormoqda. Germaniya Federal konstitutsiyaviy sudi 1972-yil 18-iyuldagi numerus clausus to‘g‘risidagi qarorida kasb tanlash erkinligi, tenglik prinsipi va ijtimoiy davlat prinsipidan mavjud oliy ta‘lim o‘rinlaridan teng foydalanish huquqini keltirib chiqardi hamda qabul o‘rinlarini cheklash faqat mavjud resurslardan to‘liq foydalanilgan taqdirda va obyektiv, tekshiriladigan mezonlar asosida yo‘l qo‘yilishini belgiladi. Ushbu sudning 2021-yil 19-noyabrdagi qarori esa yanada muhim qadam bo‘ldi: unda maktab ta‘limi olish huquqi Asosiy qonundan kelib chiqadigan mustaqil asosiy huquq sifatida ilk bor e‘tirof etilib, pandemiya davrida maktablarni yopish choralari qat’iy mutanosiblik testi asosida baholandi va ta‘limning minimal darajasi har qanday sharoitda saqlanishi shartligi ko‘rsatildi. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi Belgiya til ishi bo‘yicha qarorida ta‘lim olish huquqi mavjud ta‘lim muassasalaridan kamsitishsiz foydalanish imkoniyatini kafolatlashini



belgilagan, Leyla Şahin ishida ushbu kafolatni oliy ta'limga ham tatbiq etgan, Ponomaryovi ishida esa o'rta ta'lim uchun to'lov joriy etishda o'quvchilarning muayyan toifasini kamsitish Konvensiyani buzishini e'tirof etgan. Mazkur amaliyotdan O'zbekiston uchun muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: sudlar ta'lim siyosatini belgilamaydi va byudjet mablag'larini taqsimlamaydi, biroq ular kirish imkoniyatining tengligini, cheklovlarning qonuniyligi va mutanosibligini hamda minimal ta'lim darajasining saqlanishini tekshirishga haqli va majburdir.

Yuqoridagi tahlil asosida ta'lim sohasidagi islohotlar yoki cheklovlarning (jumladan, to'lov-kontrakt miqdorini oshirish, qabul kvotalarini qisqartirish, nodavlat ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish yoki yengillashtirish kabi choralarning) konstitutsiyaviyligini baholash uchun o'n elementli amaliy testni taklif etish mumkin. Unga ko'ra quyidagilarni aniqlash zarur: 1) chora qonunda nazarda tutilganmi va huquqiy jihatdan yetarlicha aniq ifodalanganmi; 2) u aniq, qonuniy va ijtimoiy ahamiyatli maqsadni ko'zlaydimi; 3) hal etilayotgan muammo statistik, moliyaviy va ijtimoiy ma'lumotlar bilan tasdiqlanganmi; 4) choraning maqsadga erishish uchun yaroqliligi va zarurligi isbotlanganmi; 5) huquqni kamroq cheklaydigan muqobil variantlar o'rganilganmi; 6) ta'lim olish huquqining minimal mazmuni - bepul va majburiy umumiy o'rta ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim hamda tanlov asosidagi davlat grantlari instituti - saqlanib qolmoqdami; 7) chora kam ta'minlangan oilalar, bolalar, xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va chekka hudud aholisiga nomutanosib yuk yuklamayaptimi; 8) o'tish davri, istisnalar va kompensatsiya mexanizmlari nazarda tutilganmi; 9) kutilayotgan natija bilan yuzaga keladigan ijtimoiy oqibatlar o'zaro mutanosibmi; 10) jamoatchilik muhokamasi, shikoyat qilish tartibi va mustaqil nazorat ta'minlanganmi.

Testning bitta savoliga salbiy javob har doim ham choraning konstitutsiyaga zidligini anglatmaydi: masalan, o'tish davrining qisqaligi



cheklovning arziyasligi va aniq manzilli istisnolar bilan qoplanishi mumkin. Biroq qonuniy asosning yo'qligi, kamsituvchi xarakter yoki minimal mazmunning buzilishi mustaqil va jiddiy nuqson hisoblanadi. Hisob-kitoblar, muqobillar tahlili, zaif guruhlariga ta'sir va nazorat bo'yicha salbiy javoblarning jamlanishi esa choraning asossizligi to'g'risida kuchli prezumpsiyani yuzaga keltiradi. Masalan, oliy ta'lim tashkilotining to'lov-kontrakt miqdorini real xarajatlar hisob-kitobisiz va o'qish davomida keskin oshirishi 1-, 3-, 8-elementlar bo'yicha; ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar uchun imtiyozlarsiz oshirish 7-element bo'yicha muammo tug'diradi.

Ushbu testni O'zbekistonda joriy etishning eng maqbul yo'li alohida yangi ekspertiza yaratish emas, balki amaldagi tartibga solish ta'sirini baholash tizimidan foydalanishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son qarori bilan takomillashtirilgan mazkur tizim normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining fuqarolar huquqlariga ta'sirini tahlil qilish, muqobillarni taqqoslash va jamoatchilik muhokamasini o'tkazishni nazarda tutadi [3]. Uning doirasida ta'lim olish huquqiga daxldor loyihalar - kafolatni bekor qiluvchi, uning hajmini kamaytiruvchi, oluvchilar doirasini toraytiruvchi yoki moliyaviy yukni oshiruvchi hujjatlar uchun taklif etilgan o'n elementli testga asoslangan maxsus baholash modulini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday loyihalarining izohlovchi hujjatlariga ta'sirlanuvchi shaxslar soni (daromad, hudud, ijtimoiy holat kesimida), choraning uch yillik byudjet samarasi, kamida ikkita real muqobil tahlili hamda o'tish va kompensatsiya choralari ilova qilinishi shart etib belgilanishi lozim. Sud himoyasi darajasida esa umumiy sudlar individual rad etishning qonuniyligini, Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy shikoyat instituti orqali qo'llanilgan qonunning 50–52-moddalarga muvofiqligini tekshirishi, Inson huquqlari bo'yicha vakil zaif guruhlariga ta'sir yuzasidan xulosa berishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ta'lim olish huquqi kafolatlarini statik deklaratsiya sifatida emas, balki davlat zimmasiga regressiv choralarni



kuchaytirilgan tarzda asoslash majburiyatini yuklovchi dinamik konstitutsiyaviy-huquqiy talab sifatida talqin etishda hamda xalqaro “4A” sxemasi va xorijiy sud amaliyotida shakllangan mutanosiblik standartlarini milliy normotvorchilik jarayoniga tatbiq etish uchun moslashtirilgan o'n elementli amaliy testni taklif etishda namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida to'rt asosiy fikrni shakllantirish mumkin. Birinchidan, Konstitutsiyaning 50–52-moddalari ta'lim olish huquqini bevosita amal qiluvchi huquq darajasiga ko'targan bo'lib, davlat ta'lim siyosatining shakli va vositalarini erkin tanlashi mumkin, biroq bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim va tanlov asosidagi davlat grantlari institutidan iborat minimal mazmunga daxl qilish huquqiga ega emas. Ikkinchidan, islohot ta'limning moddiy jihatdan yetib borilishi va sifatiga qanchalik chuqur ta'sir etsa, uni asoslash yuki shunchalik og'irlashadi: byudjet tejamliligining o'zi yetarli dalil emas, u hisob-kitoblar, muqobillar tahlili va zaif guruhlar manfaatini hisobga olish bilan tasdiqlanishi shart. Uchinchidan, xalqaro standartlar va xorijiy sud amaliyoti ta'lim huquqini himoya qilishning asosiy vositasi sifatida mutanosiblik testini shakllantirgan bo'lib, uni milliy huquqiy tizimga joriy etish sud hokimiyatining ta'lim siyosatiga aralashuvini emas, balki konstitutsiyaviy kafolatlarning real ishlashini ta'minlaydi. To'rtinchidan, O'zbekiston uchun eng samarali yo'l - taklif etilgan o'n elementli testni tartibga solish ta'sirini baholash tizimiga maxsus modul sifatida kiritish, konstitutsiyaviy shikoyat institutidan faol foydalanish hamda parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali ta'lim sohasidagi har qanday islohot oldindan, oshkora va dalillar asosida baholanadigan tartibni qaror toptirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahriri), 1, 14, 50, 51, 52-



moddalar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL:
<https://lex.uz/docs/-6445145>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son "Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

4. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr), 13–14-moddalar // United Nations Treaty Collection.

5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr), 26-modda.

6. YUNESKOning Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi (Parij, 1960-yil 14-dekabr).

7. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989-yil 20-noyabr), 28–29-moddalar.

8. Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 13: The Right to Education (Article 13). E/C.12/1999/10. 8 December 1999.

9. Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 3: The Nature of States Parties' Obligations. E/1991/23. 14 December 1990.

10. Tomaševski K. Human Rights Obligations: Making Education Available, Accessible, Acceptable and Adaptable. Right to Education Primers No. 3. – Gothenburg: Novum Grafiska AB, 2001.

11. Bundesverfassungsgericht. Urteil vom 18. Juli 1972 (numerus clausus I), 1 BvL 32/70 und 25/71 (BVerfGE 33, 303).



12. Bundesverfassungsgericht. Beschluss vom 19. November 2021 (Bundesnotbremse II - Schulschließungen), 1 BvR 971/21, 1 BvR 1069/21.

13. European Court of Human Rights. Case “relating to certain aspects of the laws on the use of languages in education in Belgium” (Belgian Linguistic case), judgment of 23 July 1968.

14. European Court of Human Rights. Leyla Şahin v. Turkey [GC], no. 44774/98, judgment of 10 November 2005.

15. European Court of Human Rights. Ponomaryovi v. Bulgaria, no. 5335/05, judgment of 21 June 2011.